

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Dizayn (kostyum) sohasi neologizmlarining tarjimadagi xususiyatlari	430
I.Xoldarova, X.Erg'oziyeva	
Ona tili darslarida fonetikani o'rgatish orqali orfografik va orfoepik bilimlarni shakllantirishda innovatsion texnologiyalar va mashqlarning o'rni	434
K.Turgunaliyeva, D.Mirzayeva	
O'zbek va ingliz tillaridagi she'rlarning stilistik tahlili	439
Sh.Turg'unov	
O'zbek xalq o'lanlarida etnik mansubiyat ifodasi	442
R.M.Ubaydullayev, U.R.Abdullayev	
Jismoniy mashqlar maktab o'quvchi yoshlarning morfofunksional xususiyatlariga bog'liqligini tahlili	447
I.Akramov	
Aforizmlarni pragmatik tushunish aspektlari	450
L.Badalova	
Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda storytelling yondashuvining ahamiyati	455
S.Eshonqulova	
Nodira badiiy tafakkurini shakllanishida Qo'qon adabiy muhitining o'rni	458
H.Dusmatov, M.Husaynova	
O'zbek latifalarida so'z o'yinlarining uslubiy-pragmatik xususiyatlari	468
N.Shavilova	
Rus va o'zbek tillarida paronimlarning tasnifi.....	472
M.Xusanova, M.Xusanova	
Somatik kodlar tadqiqiga doir.....	478
M.Rahimova	
O'zbek tilida leksik nomemalar.....	481
D.Sirojiddinova	
Ingliz tilida modal so'zlar muqobilari haqida umumiy qarashlar.....	484
D.Raximjonova	
Ingliz tilshunosligida kompyuter dasturiy ta'minot atamalarining tuzilish xususiyatlari.....	489
U.Eshmuradov	
Til o'rganishda tinglashning ahamiyati va tinglab tushunish muammolari: til o'rganuvchilar tajribasi.....	493
A.Rasulova	
To'siqsizlik munosabatining jahon tilshunosligida o'rganilishi	497
G.Odilova	
Glyuttonik diskursning lingvistik xususiyatlari	500
X.Abdurahmonov	
O'zbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati	504
M.Otaboyeva	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'l semantik kategoriyalari bo'yicha tuzilgan graduonimik qatorlarlarning o'xhash va farqli jihatlari	508
G.Rozikova	
So'z semantik taraqqiyotidagi o'zgarishlar xususida.....	511
Sh.Siddiqova	
O'ziniki bo'limgan ko'chirma gaplarda obrazlilikni ta'minlovchi semantik-stilistik faktorlar.....	516
N.Usarova	
Tarjima muammosining nazariy jihatlari	520
K.To'xtaeva	
C1 darajadagi talabalarga ingliz tilini o'qitish muammolari.....	524
Z.Usmonova	
Rey Bredberining "Marsga hujum" ("The martian chronicles") asari bilvosita tarjimasida tarjima usullari va o'ziga xos xususiyatlari.....	531
G.Davlyatova, Sh.Artikova	
Ritorik nutqda pleonastik birliklarning foydalanishi	535
G.Mamadjanova	

**ONA TILI DARSLARIDA FONETIKANI O'RGATISH ORQALI ORFOGRAFIK VA
ORFOEPIK BILIMLARINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA
MASHQLARNING O'RNI**

**РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И УПРАЖНЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ
ОРФОГРАФИЧЕСКИХ И ОРФОЭПИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В ОБУЧЕНИИ ФОНЕТИКИ НА
УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА**

**THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND EXERCISES IN THE
FORMATION OF ORTHOGRAPHIC AND ORTHOEPIC KNOWLEDGE BY TEACHING
PHONETICS IN NATIVE LANGUAGE CLASSES.**

Xoldarova Irodaxon Valijonovna¹, Erg'oziyeva Xurshidaxon Abdusalom qizi²

¹Xoldarova Irodaxon Valijonovna

– Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

²Erg'oziyeva Xurshidaxon Abdusalom qizi

– Farg'ona davlat universiteti, magistr

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'llim olish jarayonida fonetik bilim berish orqali ortografiq va orfoepik bilimlarini shakllantirib borish hamda alifbe, ona tili va o'qish savodxonligi darslari davomida egallagan bilimlaridan foydalangan holda topshiriqlarni mustaqil bajara olishlariga zamin hozirlash, ko'zlangan natijalarga erishishda innovatsion texnologiya va mashqlarning o'rni haqida so'z yuritilgan.

Аннотация

В данной статье описывается роль инновационных технологий и упражнений в формировании орфографических и орфоэпических знаний в обучении фонетики в процессе обучения, а также подготовки навыков для самостоятельного выполнения учащимися начальных классов заданий с использованием знаний, полученных в ходе изучения букваря, родного языка и читательской грамотности

Abstract

In this article, in the process of education, elementary school students will develop their orthographic and orthographic knowledge by providing phonetic knowledge, and prepare the ground for independent completion of tasks using the knowledge acquired during the alphabet, mother tongue and reading literacy classes, innovative technology and exercises to achieve the desired results.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'llim, fonetika, to'gri yozish, to'g'ri talaffuz qilish, ta'llimiyl o'yinlar, pedagogik texnologiya, "Klaster", "T-sxemasi", "Venn diagrammasi", "Konseptual jadval", bo'g'in, qo'sh undosh, qator undosh, paronimlar.

Ключевые слова: начальное образование, фонетика, орфоэпия, орфография, педагогические технологии, «кластер», «Т-схема», «Венн диаграмма», слог, удвоенные согласные, сочетание согласных, паронимы

Key words: Primary education, phonics, correct writing, correct pronunciation, educational games, pedagogical technology, "Cluster", "T-scheme", "Venn diagram", "Conceptual table", begin, double consonant, row consonant, paronyms.

KIRISH

Respublikamizda yuz berayotgan o'zgarishlar yosh avlodning har tomonlama mukammal bilimga ega bo'lishini talab etadi. Shuning uchun darslik va qo'llanmalarni yangilashga ehtiyoji paydo bo'lmoqda shu bilan birgalikda darsliklarni zamon talablariga hamda o'quvchilarining bilim darajasiga muvofiqlashtirilmoqda. Zamonaviy o'quv- uslubiy majmularini yaratish va o'quv tarbiya jarayonini didaktik jihtdan ta'minlash umumiyl o'rta ta'llimning asosiy vazifalaridan biri sifatida ko'rsatiladi [1]. Shu sabali yurtimizda shu uch yil mobaynida Milliy o'quv dasturlari, Xalqaro baholash dasturlari, o'qish va ona tili darsligini birlashtirgan holda yangi darsliklar, metodik qo'llanmalar yaratilib nashirdan chiqarilmoqda va tajriba-sinov jarayonidan o'tib, respublika maktablarida foydalanib kelinmoqa. Bu bajarilayotgan ishlarning zamirida O'zbekiston ta'llimini rivojlangan davlatlar ta'llimi safiga qo'shishdan iboratdir.

Ta'llim tizimidagi islohotlar munosabati bilan boshlang'ich ta'llim oldiga qo'yilgan talablar savod o'rgatish va ona tili darslarida fonetikani o'rgatishda pedagogik va innovatsion

TILSHUNOSLIK

texnologiyalarining rivojlantiruvchi differensiatsiya, shaxsning muayyan maqsadga yo'naltirish, izlanish, muammoli o'qitish, multimedia va ta'limiyl o'yinlar, mustaqil ish usullari hamda berilgan mashqlardan unumli foydalanishni taqazo etmoqda. Shuni hisobga olgan holda savod o'rgatish va ona tili darslarida fonetik bilim berishni samarali tashkil etishga yordam beradigan, o'quvchini faolligini oshiradigan interfaol metodlar, ta'limiyl o'yinlar, multimedialar, mustaqil ish, muammoli o'qitish, analiz, sintez, induksiya metodlaridan mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonida ko'proq foydalanish kerak. Ushbu kurs ishida mazkur metodlarga mos metodik ish usullari va mashqlarni samarali foydalanish jarayoni ishlab chiqiladi. Savod o'rgatish va ona tili darslarida fonetikani o'qitishda pedagogik texnologiyalar, mustaqil tahlil, ta'limiyl o'yinlar, multimedia, turli ko'rinishdagi mustaqil ishlar husnixat daqiqalarini uyushtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

D.Nabiyeva, Z.Zokirova, A.G'ulomov, B.Qodirov, A.N.Nurmonov, U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev, A.Abduaizov tadqiqotlarida fonetika va fonologiya, orfoepiya va orfografiyaning yuzaga kelishi, qo'llanilishi va boshqa xususiyatlari haqida fikr yuritilgan bo'lsa, K.Qosimova, S.Matchanova, R.Safarova, X.G'ulomovalarning tadqiqotlarida yuqoridaq til bo'lmlarining aynan boshlang'ich sinflarda o'qitish metodikalari, rivojlantirish omillari xususida fikr yuritilgan. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar orasida alifbe hamda ona tili va o'qish savodxonligi darsligi muhim o'ringa ega. Alifbe hamda ona tili o'qish savodxonligi fani boshlang'ich sinf o'quvchilarining fonetik bilimlarini shakllantirishda va bu bilimlardan foydalangan holda orfoepik, orfografik bilimlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har bir o'quvchini ushbu fanlar qatori barcha fanlarga qiziqish va muhabbat ruhida tarbiyalab bormoq lozim. Yuqoridaq fanlarning o'quv dasturi o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lif standartlari talablaridan kelib chiqqan holda tuzilgan.

Ona tili darslarida ta'limiyl o'yinlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash sinfdagi eng "jiddiy" bola bilan ham til topishishga imkon beradi. Dars jarayonida ta'limiyl o'yin, multimedia, pedagogik texnologiyalardan foydalanish bilim olish jarayonini qiziqarli va maroqli tashkil etishni ta'minlaydi. Bolalarni jismonan tetiklashtirib kayfiyatini ko'taradi, shuningdek ona tili darslaridagi mavzularni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Pedagogik texnologiyalar, multimedia va ta'limiyl o'yinlarni topshiriq va mashq bajarish jarayonida qo'llash bola shaxsiyatini, qobiliyatini har tomonlama tarbiyalaydigan vosita vazifasini o'tashga yordam beradi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida yuqoridaq vositalarni turli xil usullaridan foydalanish o'quvchini bilimini o'stiribgina qolmay morfologik va grammatik bilimlarni ham tez va oson o'zlashtirishga ko'maklashadi. Bunda quyidagi ishlarni muntazam ravishda bajarishni tavsiya etish mumkin: mavzuni darslik asosida o'rganish, namunaviy mustaqil mashqlar, husnixat daqiqasi, yangi turdag'i topshiriqlar, o'zlashtirilgan usullarni amalda uzlusiz qo'llashga oid vazifalarni bajarish hamda ijodiy ishlar. O'qituvchilar bilan o'quvchilar o'rtasida kechadigan amaliy mashq usullaridan biri yozma va chizma usulidir. Bunday usulda muloqot o'rnatish natijasida o'quvchilarning o'z fikrini ifodalash imkoniyati kengayadi, yozma nutqi rivojlanadi. Og'zaki muloqot jarayonida bayon qila olmagan fikrlarini yozma shaklada ifodalashi uchun sharoit tug'iladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqi hali rivojlanmaganligi sababli kichik va katta guruhlarda ish olib borish yaxshi natija beradi. Bunda guruh tarkibidagi o'quvchilar faqat o'zlarining chegaralangan fikridan tashqari o'zgalarni ham tinglab, so'z boyligini ham ottirib boradilar. Darslardagi chizmalar bolalarda muomala madaniyatini va dunyoqarashini keng shakllanishiga turki bo'ladi. Chizmalar orqali bolalar borliqni o'rganadilar va dunyon ni o'zlashtirishga harakat qiladilar. Masalan, "Klaster", "T-sxemasi", "Venn diagrammasi", "Konseptual jadval", "Qanday" organayzer, "Baliq skeleti" texnikasi[2] kabi chizmalar, husnixat daqiqasi, qo'shimcha topshiriq va mashqlardan fonetikani o'rgatish, orfografik va orfoepik bilim berish uchun dars jarayonlarida foydalanish mumkin. Bundan tashqari barcha boshlang'ich sinflarda doimo qo'llash tavsiya etiladi. Innovatsion texnologiyalar ichida shundaylari ham mavjudki, bular bir mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborot berish va ularning har birini alohida tahlil qilish imkoniyatini beradi. Masalan, ushbu rejamizni yoritib, o'quvchilarga

tushunarli bo'lishini ta'minlovchi "Konseptual jadval", "T-sxemasi", "Klaster" murakkab va ko'p tarmoqli muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Bunda mavzuning turli tarmoqlari to'g'risida axborot beriladi va ularning har biri alohida tahlil qilinadi.

Boshlang'ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchining qiqatini jamlaydi, tez fikrlash, nutqini bog'lashga o'rgatadi xotirani rivojlantiradi.

1-mashq. O'zbekiston tarkibidagi respublika va 12 ta viloyat nomini yozing [3]. Ushbu mashqni sind jamoasi bilan birligida "Konseptual" jadval asosida bajariladi.

"Konseptual" jadval – bu grafik tashkilotchi. Ushbu jadvali ikki va undan ortiq fakt va hodisalarini o'zaro taqqoslashga ularni atroflicha tahlil qilishga imkon beradi.

Maqsad:

- o'quvchilarni kitoblar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'quvchilarda izlanishlarni olib borish ko'nikmasini ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning tahliliy tafakkurini rivojlantirish.

1-qadam-yangi ma'lumotlar bilan ishlash (tanishish)

2-qadam- Jadval tuzish. Bunda konseptual jadvalning birinchi ustunida taqqoslanishi talab qilinadigan fakat hodisalar nomlari, yuqori gorizontal qatorda taqqoslanuvchi jihatlari ifodalanadi.

3- qadam- Jadvalni to'ldirish. O'quvchilar taqqoslanuvchi jihatlarni ta'riflashadi va muvofiq turkumlar tagiga ma'lumotlarni taqsimlab chiqadilar [4]. O'quvchilarga shahar va joy nomlari doimo bosh harfda yozilishini ba'zi bir so'zlarni talaffuz qilayotganimizda tushirib qoldiramiz, ammo yozuvda albatta yozishliklari eslatilib o'tilishi kerak.

Talaffuzi va imlosida farqi bo'lmagan Respublika va viloyat nomi	Qoraqolpog'iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo, Xorazm, Farg'ona, Andijon, Namangan
Talaffuzi va imlosida farqi bo'lgan Respublika va viloyat nomi	Toshken- Toshkent, Samarqan-Samarqand

1- mashq . Hayvonlarning nomini bo'g'inlarga ajratib yozing [5]



1. Hayvonlarning nomini bo'g'inlarga ajratib yozing.



O'quvchilarga bu mashqni bajartirishdan oldin bo'g'in haqidagi bilimlarini takrorlab olinadi. Bo'g'inlarning ikkita turi borligi, ular ochiq va yopiq bo'g'inlar ekanligi aytiladi. Bo'g'in hosil qiluvchi tovushlar esa unli tovush ekanligi ham yodlariga solinadi. Bo'g'in unli tovush bilan tugasa ochiq bo'g'in; undosh tovush bilan tugasa yopiq bo'g'inligi izohlanadi. O'zbek tilida faqatgina unli tovushlar bo'g'in hosil qilishi, undosh tovushlar bo'g'in hosil qila olmasligi amaliy tushuntiriladi. Bo'g'inga bo'lish va bo'g'inga ko'chirish qoidalari, bo'g'inga ko'chirish imlo qoidalari tarkibiga kirishini asoslاب beriladi va shundan so'ng mashq bajartiriladi. - *bo'-ri, tul-ki, i-lon, ol-ma-xon, a-yiq, tip-ra-ti-kan, ki-yik*.

Bu mashqni pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda jadvalga solib ishslash hamda uni ekranda multimedia shaklida, ranglar orqali farqini ko'rsatish bola ongida yaxshi saqlanib qolishiga yordam beradi.

TILSHUNOSLIK

Ikki bo'g'inli hayvon nomlari - bo'-ri, tul-ki, i-lon, ki-yik.	Uch va to'rt bo'g'inli hayvon nomlari ol-ma-xon, , tip-ra-ti-kan
--	--

1- Topshiriq. Berilgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling [6].



Berilgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qiling.

mikroskop

bakteriya

mikrob

Ogden Nesh

asir

muallif

vitamin

biotin

million

asr

Bu topshiriqni o'quvchilar bilan birgalikda bajarilganda ko'proq, qayta-qayta talaffuz qilishga o'rgatiladi. Shu bilan birga o'zbek tilining izohli lug'at haqidagi boshlang'ich tushunchalar berilib amaliy yozish orqali o'rgatiladi. Boshqa tildan kirib kelgan yangi va o'zlashma so'zlarning lug'aviy ma'nosini tushuntirish orqali bolalarda u so'z haqida boshlang'ich, qisqacha tushunchalar paydo bo'ladi va lug'aviy ma'nosini tushungan holda bu so'zlarning yozilishi yodlarida saqlab qoladi. Bu esa bolalarda shu so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmasini shakllantiradi. Ya'ni yangi va o'zlashma so'zlar qaysi tildan olingen bo'lsa va o'z tilda qanday yozilsa, o'zbek tilida ham shunday yozilishi haqidagi ma'lumotlar beriladi. Bu orqali boladagi orfoepik va orfografik bilimlarning yanada shakllanishiga yordam beradi. Masalan: *mikroskop*, *mikrob*, *biotin*, *Ogden Nesh*

O'quvchilarga qo'sh undosh va qator undosh tushunchalarini ham shu mashqning o'zida tushuntirib ketish mumkin. So'zlarni qanday hollarda qator undosh va qaday hollarda qo'sh undosh deyilishini topshiriqdagi so'zlarni misol qilish orqali o'quvchilarga tushuntirish tayyor ko'rgazmalik holatni kasb etadi va o'quvchilarni ongiga tez yetib borishini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan: **qo'sh undoshli so'zlar: muallif, million**.

Topshiriqda berilgan paronim so'zlarni lug'aviy ma'nosidan kelib chiqqan holatda tushuntirib berish o'quvchilarda paronim tushunchasini anglab olishga yana shunday so'zlarga mashqlar davomida duch kelsa qiynalmay ma'nosini anglab yetishi va yozilishini yodida saqlab qolishiga bu orqali orfografik bilimning shakllanishiga olib keladi.

Paronimlar (para... va yun. Onyma — nom, ism) — talaffuzi, eshitilishi va morfem tarkibi o'xshash, leksik ma'nolari boshqa-boshqa yoki qisman yaqin bo'lgan so'zlar. Tilda ana shunday so'zlarning mavjud bo'lish hodisasi paronimiya deyiladi [7]. O'quvchilarga ilmiy ta'riflarni bola tiliga o'girgan hololatda ilmiy ta'rifini yo'qotmagan holatda tushuntirish shu so'zni ongli tushunib yetishiga yordam beradi. Bu esa yuqori sinfga chiqqanda ham boshlang'ich tushunchaning borligi, dars jarayonida qiynalmay qo'llay olishiga yordam beradi.

Masalan: Asir va asr so'zlarini izohli lug'atdan foydalaniib farqini tushuntirishda lug'aviy ma'nosidan tashqari qaysi tildan kirib kelganligini aytib o'tish lug'at ustida ishslash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. **ASIR** — tutqun, bandi; maftun, shaydo] 1) Urush vaqtida dushman qo'liga tushib, ozodlikdan mahrum bo'lgan shaxs; bandi. Asir olmoq. Asir tushmoq. **ASR** — davr, zamon] Yuz yillik davr, yuz yil [8]. So'zlarni lug'aviy ma'nosini izohlagan holda bu so'zlarni yozuvda ifodalashi ikki paronim so'zni tushungan holda yozishi orfoepik va orfografik bilimlarini yanada shakllanib borishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'qituvchi o'quvchilarning fonetik, orfoepik, orfografik va tilga oid kompetensiyalarini shakllantirishdagi 40-45 daqiqa davom etadigan darsni har tomonlama mukammal va yaxshi natijaga erishishni ta'min etuvchi ta'limning zamonaviy

usullariga yondashgan holda tashkillashi va shunday o'tishi lozim. Bunda bolaning psixologik va fiziologik jihatini hisobga olishi bugungi kun talablaridan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchini izlanishga, o'z ustida ishlashga, kasbga sadoqat va ijodkorlikka undaydi. Zero, o'qitish – ikki barobar o'qish demakdir!

ADABIYOTLAR RO'YXAT

1. Sh. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent- "O'zbekiston"-2016.488B (Sh. Mirziyoyev We will build our great future together with our brave and noble people. Tashkent- "Uzbekistan"-2016.488B)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oly Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 80 b.(Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oly Majlis. - Tashkent: Uzbekistan, 2018. - 80 p.)
3. Qosimova K., Matchanova S., Gulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyeva Sh. Ona tili o'qitish metodikasi.- Toshkent:Nosir,2009.(Kasimova K., Matchanova S., Gulomova Kh., Yoldosheva Sh., Sariyeva Sh. Methodology of mother tongue teaching.-Tashkent: Nasir, 2009)
4. G'offorova T. Boshlang'ich ta'linda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent. "Tafakkur" 2011- yil (Gofforova T. Modern pedagogical technologies in primary education. Tashkent. "Thinking" 2011)
5. Azimova I., Mavlonova K., Qurbonov S.,Shokir Tursun. Ona tili va o'qish savodxonligi (2- sinf 1-qism).Toshkent, "Yangi"2021-yil 5-10-bet (Azimova I., Mavlonova K., Kurbanov S., Shokir Tursun. Mother tongue and reading literacy (grade 2, part 1). Tashkent, "Yangi", 2021, p. 5-10)
6. Nabiyeva D. Zokirova Z. O'zbek tili fonetikasi (O'quv-uslubiy qo'llanma). Andijon 2016-yil (Nabiyeva D. Zokirova Z. Phonetics of the Uzbek language (Educational manual). Andijan 2016)
7. G'ulomov. A., Qodirov. B. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: O'qituvchi, 1998.(Gulomov.A., Kadirov.B. Methodology of mother tongue teaching. - T.: Teacher, 1998.)
8. Nurmonov A.N. O'zbek tili fonologiyasi.Toshkent. "Fan" 1990-yil (Nurmonov A.N. Phonology of the Uzbek language. Tashkent. "Science" 1990)
9. Abduaazizov A.A. O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. Toshkent. "O'qituvchi" 1992 yil.(Abduaazizov A.A. Phonology and morphonology of the Uzbek language. Tashkent. "Teacher" 1992.)
10. Ona tili va o'qish savodxonligi. 2-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun/ K.Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2021.(Mother tongue and reading literacy. Part 2 [Text]: textbook for grade 2/ K. Mavlonova [et al.]. - Tashkent: Republican Education Center, 2021.)
11. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: 3-sinf uchun darslik / K.Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2022.(Mother tongue and reading literacy. Part 1 [Text]: textbook for 3rd grade / K. Mavlonova [et al.]. - Tashkent: Republican Education Center, 2022.)
12. Respublika ta'lif markazi Axborot xizmati. (Information Service of the Republican Education Center.)
13. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Paronimlar> (https://uz.wikipedia.org/wiki/Paronyms)
14. <https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.shukurov.izohlilugat&hl=ru&gl=US>
(https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.shukurov.izohlilugat&hl=ru&gl=US)